

TOSHKENT AXBOROT TEKNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

BTTL fanidan

**“Google” BAT tahlili asosida kamchilik va xavflarni
kamaytirish uchun chora-tadbirlar mavzusida**

2-modul uchun

Mustaqil ish.

Bajardi: 211-13 guruh talabasi

Murodov M.

Tekshirdi:

Toshkent 2015

Mavzu: Google biznes axborot tizimini tahlil qilish.

Reja:

1. Google tizimini yaxshilash uchun talab va ehtiyojlar.
2. Tizimni yaxshilash uchun yangi g'oya ishlab chiqish, qarorlar daraxti, qayta loyihalash hamda foydalanuvchi interfeysini yangilash.
3. Xulosa.

Ushbu mustaqil ishim avvalgisining mantiqiy davomi hisoblanadi, unda men Google BATni tahlil qilib chiqqandim.

Undagi SWOT tahlilni yana bir bor keltirib o'taman, chunki talab va ehtiyojlar shunga qarab shakllantiriladi:

Kuchli Tomonlar (Strengths)		Zaif tomonlar (Weaknesses)	
Ochiq kodli loyihalar	3	Hamma kodlar bitta manbada saqlanadi	2
Yuqori sifat	1	Foyda kelmaydigan loyihalarning ko'pligi (Youtube, Drive, ...)	1
Homashyoga zarurat yo'q	1	Juda ko'p ochiqlik	2
Dunyodagi 80 % insonlar haqida ma'lumotlari bor	1		
Eng tez qidiruv algoritmi	1		
Tizimlarga tezkor integratsiyasi	2		
Innovatsiyalarga boyligi	2		
Imkoniyatlar (Opportunities)		Xavflar (Threats)	
Juda katta hajmli foydalanuvchilarni sohalarga yo'naltira oladi	1	Litsenziya olish qiyinligi	2
Innovatsion sohalarga tezkor kirish	1	Foydalanuvchilar sonining juda tez ortishi	1
Robot mashinalarni ishlab chiqarish	1	Microsoft – eng katta raqobatchi	1
Elektronik iqtisodiyotni boshqarish	2	Apple – mobil sohada raqobatchi	2
Dunyodagi turli loyihalarga o'z ta'sirini o'tkaza olish	2	Tez-tez sudlashuvlar	2
Yangi operatsion tizim tuzishi (Android, Chromium)	2		
Dinamik tizim	1		

Yuqoridagi tahlil turli doiralardan tomonidan turlicha ehtiyoj va talablarni keltirib chiqaradi, ulardan, eng avvalo, tizim foydalanuvchilarini talablarini qondirish zarur. Bu doiralarni shartli ravishda 3ta deb oldim:

1. Tizim foydalanuvchilari. Ularning talab va ehtiyojlari juda ham ko'p va bularni to'ldirish uchun kompaniya yaxshigina ter to'kishiga to'g'ri keladi. Misol uchun, qidiruv tizimi qoidalarini soddalashtirish, dasturlar interfeyslarini tez-tez yangilash va hokazo.

2. Dasturchi-foydalanuvchilar. Ular uchun Google mahsulotlarining dizayni emas strukturasi va dasturiy API(Application Programming Interface) kabilarni yangilash muhimroqdir.

3. Tizim dasturchilari va administratorlari. Ularning talab va ehtiyojlari yuqoridagi 2 doira vakillarining talablari va ehtiyojlariga mos ravishda o'zgaradi, shuningdek, Google BAT dasturiy mahsulotlarining boshqaruv qismini soddalashtirish va xavfsizligini oshirish ham shu kabi ehtiyojlardan biridir.

Yuqoridagi talablar, albatta, vaqt o'tishi bilan oshib bormoqda, sababi dunyoda tizim foydalanuvchilari soni ortmoqda, shuningdek, bir vaqtning o'zida raqobatchi BATlar ham o'z salohiyat va imkoniyatlarini oshirib borishmoqda. Google BATning turli kamchilik va zaif tomonlarini birinchi hamda ikkinchi doira vakili sifatida tahlil qilishga harakat qilaman:

1. (Foydalanuvchi tomonidan) Google qidiruv tizimini soddalashtirish kerak. Qidiruvda juda qiyin iboralardan foydalaniladi. Misol uchun biror pdf kitobni .ru domenlar ichidan qidirish kerak bo'lsa, Googleda quyidagicha yozilishi kerak:



Ularning raqobatchilari Yandex tizimida esa ancha qulayroq:



2. (Dasturchi tomonidan) Deyarli barcha dasturiy mahsulotlar uchun yagona dasturchi portal yaratish va unda yagona identifikatsion tizimdan foydalanish, shuningdek, ochiq kodli dasturlar uchun ishlab chiqilgan **Google Code** mahsulotini yangidan ishlab chiqish va **GitHub, SourceForge** kabilar darajasiga chiqarish.

3. (Foydalanuvchi tomonidan) **Brauzer va Chromium OS**dagi xavfsizlikni oshirish. Bunda ko'p buzg'unchilar ushbu dasturlardagi kamchiliklarni topib, bema'lol parollar va ko'rib chiqish ma'lumotlariga ega bo'lmoqda. Buni hatto oddiy foydalanuvchilar ham ba'zi dasturlar yordamida eplamoqda.

4. (Dasturchi tomonidan) Android OS imkoniyatlarini, ayniqsa, tezligini oshirish, bu borada hozircha Google o'z raqobatchilari **Apple va Microsoft**dan ortda qolmoqda, shuningdek, Android ochiq kodli bo'lgani uchun **CyanogenMod** guruhi bu loyihani Googleden tortib olishga harakat qilmoqda.


5. (Har ikkala doira tomonidan) Ishlatilmay qolib ketayotgan loyihalarni kuchaytirish va foydalanuvchilar ichida tadbiq qilish, hozirda Googlening katta-katta loyihalari ham ishlatilmay qolib ketmoqda yoki kam ishlatilmoqda. Masalan, **Google Code, Blogger, Google News, ...**

Endi tizimni yaxshilash uchun yuqoridagi ehtiyojlardan kelib chiqib qanday g'oyalar ishlab kerakligi haqida va bu muammolarni yechish uchun qaysi tizimlardan o'rnak olish kerakligi haqida o'z fikrlarimni bildirib o'taman va dastlabki ikkita ehtiyoj uchun qarorlar daraxtini ham keltiraman:

1. Qidiruv tizimini soddalashtirish kerakligini aytgandim, bu borada talablar umumiy foydalanuvchilarning 80 % idan tushgan. Shuning uchun eski ko'rinish yoki yangisidan birini tanlash imkoniyatini yaratsa ham bo'laveradi. Bunda qarorlar daraxti ko'rinishi:

Qarorlar daraxti


14.10.2015r 5:10



2. **Google Code** uchun **GitHub**dan andoza olish hamda unga foydalanuvchilarni jalb etish, bunda ichki ijtimoiy tarmoqlarni ham ulash maqsadga muvofiq, misol uchun **Youtubega** video joylashtirayotgan foydalanuvchidan tizim bu videoning qaysidir loyihaga(**Google Code**dagi) aloqasi bor bo'lsa belgilashini so'rasin. Bu dasturchilar uchun ayni muddao bo'ladi. Qarorlar daraxti:

Google Code

© 2015



3. Bu masala yechimini topishi uchun Googleden unchalik ko'p harakat talab etilmaydi, agarda Ushbu muammoni yechadigan bo'lsa, u bemaol o'z operatsion sistemasini pullik tizim qilsa bo'ladi, chunki hozirda ko'p foydalanuvchilar uchun xavfsizlik birinchi o'rinda turadi.

4. Tezlikni oshirish bu foydalanuvchilarni yo'qotmaslikni eng yaxshi yo'li, shuning uchun Google Android OSda bu borada bir qancha ishlar olib borishi kerak, menimcha smartfondagi Google Apps dasturlarining qaysi biri foydalanuvchiga kerak ekanligini uning o'zi hal qilishiga qo'yib berish kerak, chunki asosan shu dasturlar Operatsion Sistema ishini sekinlashtiradi.

5. Bu dasturlarni yo Google sotib yuborishi yoki qayta loyihalashtirishga tushirishi kerak, shundagina ulardan foyda olishi mumkin bo'ladi hamda foydalanuvchilar ham bu loyihalarning to'la imkoniyatlaridan foydalana olishadi.

Google BAT oldida eng xavfli raqiblar Microsoft va Apple larni yengishdek vazifa turadi, shuningdek vaqti-vaqti bilan boshqa tizimlar ham unga xavf solib turadi ularni yengib o'tish uchun muntazam ravishda o'z dasturiy va texnik vositalari ishlashini tekshirib turishi, yangilashi hamda sozlashi kerak bo'ladi.

Xulosa.

Bu mustaqil ishni bajarish davomida men turli xavflarni oldini olish va ehtiyojlarni qondirish uchun qanday choralar ko'rilishi lozimligini tushunib oldim. Shuningdek, tizim boshqaruvida qanday muammolar kelib chiqishi va hozirda internet foydalanuvchilari va boshqa foydalanuvchilarning talablari nimaga qaratilganini o'rganib chiqdim va kelajakda ham agar tizim eksperti vazifasini bajaradigan bo'lsam, albatta, bularni inobatga olaman.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://en.wikipedia.org/wiki/Google> web manzili.
2. <http://obvious-stock-picks.blogspot.com/2015/01/swot-analysis-for-google-for-2015.html> web manzili.
3. Ma'ruza prezentatsiyalari.
4. <https://cloud.mail.ru/public/68xo/7czbnIYOU> web manzili(Avvalgi Mustaqil ish).